

**Guliston Davlat Pedagogika Instituti  
“Pedagogika” kafedrasini, PhD  
Samatova Dilrabo Yusufovna taqrizi  
ostida**

**Yusupova Ziyoda Ikrom qizi**  
Guliston Davlat Pedagogika Instituti  
Pedagogika yo‘nalishi magistranti  
Email:yusupovaziyoda2001@gmail.com  
ORCID ID- 0009-0000-5074-1091

---

## **TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHI VA IJODIY YONDASHUVINI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya:** Ta’imda tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlanirish metodlari bugungi kunda ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarga ma’lumotlarni tahlil qilish, baholash va mantiqiy xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlaniradi. Ijodiy yondashuv esa o‘quvchilarga yangi g‘oyalar yaratish, muammolarni innovatsion tarzda hal qilish va kelajakda o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatini oshiradi. Ushbu metodlarning o‘qituvchilar tomonidan samarali qo’llanilishi, nafaqat o‘quvchilarning akademik yutuqlarini, balki ularga hayotiy ko‘nikmalarni ham berishga yordam beradi.

**Kalit so‘zlar:** Tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, ta’lim metodlari, o‘quv jarayoni, interaktiv usullar, kollaborativ ish, muammoli vazifalar, mustaqil fikrlash, innovatsion ta’lim, tahlil qilish, qaror qabul qilish.

**Abstract:** The methods of developing critical thinking and creative approach in education have become an integral part of the educational process today. Critical thinking develops students' skills in analyzing, evaluating, and drawing logical conclusions from information. A creative approach increases students' ability to generate new ideas, solve problems in an innovative way, and adapt to future changes. Effective use of these methods by teachers not only helps students achieve academically, but also provides them with life skills.

**Key words:** Critical thinking, creative approach, educational methods, educational process, interactive methods, collaborative work, problem tasks, independent thinking, innovative education, analysis, decision-making.

**Аннотация:** Методы развития критического мышления и творческого подхода в образовании сегодня стали неотъемлемой частью образовательного процесса. Критическое мышление развивает у учащихся умения анализировать, оценивать и делать логические выводы из информации. Творческий подход повышает способность студентов генерировать новые идеи, решать проблемы инновационным способом и адаптироваться к будущим изменениям. Эффективное использование этих методов учителями не только помогает учащимся добиться академических успехов, но и дает им жизненные навыки.

**Ключевые слова:** Критическое мышление, творческий подход, методы обучения, учебный процесс, интерактивные методы, совместная работа, проблемные задачи, самостоятельное мышление, инновационное образование, анализ, принятие решений.

---

### **Kirish**

Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilimlarni yetkazib berish, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan. Shu sababli tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish ta’lim jarayonining muhim qismiga aylanmoqda. Ushbu metodlarni samarali qo‘llash o‘quvchilarning muammolarni tahlil qilish, yangicha qarashlarni shakllantirish va innovatsion yechimlarni topish qobiliyatini oshiradi.

**Tanqidiy fikrlash** – bu ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish, argumentlarni baholash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ushbu yondashuv insonning aniq va mantiqiy fikrlashiga, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

**Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari:** Ma’lumotlarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, mantiqiy bog‘liqlikni tushunish, alternativ fikrlarni baholash, ob’ektiv qaror qabul qilish

**Ijodiy yondashuv** – bu yangi g‘oyalarni yaratish, muammolarga original yechim topish va innovatsion fikrlash qobiliyatidir. Ijodiy tafakkur orqali inson an’anaviy yondashuvlardan chiqib, o‘ziga xos va samarali usullarni ishlab chiqadi.

**Ijodiy fikrlash ko‘nikmalari:** Muammoni turli tomonidan ko‘rish, yangi g‘oyalalar ishlab chiqish, muqobil yechimlarni izlash, xayolotga asoslangan fikrlash, yangi kombinatsiyalar yaratish

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Farobiy “Fozil odamlar shahri ” asarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni juda muhim deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, haqiqiy bilimga erishish uchun odamlar mustaqil fikrlashlari, dalillarni sinchiklab tekshirishlari va turli fikrlarni tahlil qilishlari kerak. Farobiyning fikricha, ideal jamiyatda har bir fuqaro o‘z fikrini asosli va mantiqan izchil tarzda ifoda eta olishi zarur. Shuningdek, u insonlarni dogmatik fikrlashdan voz kechishga, shubhalanish va izlanishga undaydi. Farobiy tanqidiy fikrlashni insonning intelektual rivojlanishida asosiy omil sifatida ko‘radi va bu orqali jamiyatning umumiy taraqqiyotiga hissa qo‘sishni maqsad qilgan.[1.2]

V.R.Ruggieroning ta’kidlashicha sinfda “tanqidiy fikrlash” iborasi o‘qituvchilar tomonidan tez-tez qo‘llaniladi. Insonning fikrlash qobiliyatini oshirish uchun tanqidiy fikrlash “fikrlash haqida fikr yuritish san’ati” deb nomlanadi.[3] Albatta, qiyinchilik sinf ichida ham, undan tashqarida ham tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradigan o‘quv sharoitlarini loyihalashda. Kattalar tanqidiy fikrlashni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash orqali o‘z bilimlarini qabul qilish va nazorat qilish imkoniyatiga ega. Tanqidiy fikrlaydigan kattalar o‘quv muhitiga boshqacha qarashadi.

Tanqidiy fikrlash usullaridan foydalanadigan o‘quvchilar odatda dars materialiga yanada aniqroq va samaraliroq yondashadilar, ko‘proq talabchan savollar beradilar va o‘quv jarayoniga faolroq kirishadilar. Ushbu tanqidiy fikrlash jarayoni muktabdan keyin ish joyida davom etadi.

R. Ennis ko‘p yillik o‘rganish, tahlil qilish, ko‘rsatma va amaliyot orqali tanqidiy fikrlash “nimaga ishonish yoki nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan” degan xulosaga keldi.[4]

Pol tanqidiy fikrlashni olimning o‘z fikrlash jarayonining borishini boshqarish qobiliyati bilan bog‘ladi [5]. Xarris va Xodjes tanqidiy fikrlashni matn sifatini o‘rganish va tahlil qilish orqali

uning qiymatini yoki ta'sirini tanqidiy baholash bilan solishtirdi [6]. Maykl Skriven (Garvard universiteti professori) tanqidiy fikrlashni o'rganishning eng ko'p nashr etilgan muallifi sifatida zamonaviy voqelikka eng mos keladigan ta'rifni taklif qildi: "Kuzatuvlarni, aloqalarni, ma'lumotlarni mohirona talqin qilish va baholash va aniq dalillarni ilgari surish qobiliyati. keyingi fikrlar va harakatlarga tegishli" [7].

## **Tadqiqot metodologiyasi**

### **Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirish metodlari:**

#### **1. Munozara va bahs-munozaralar (Debatlar)**

O'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha turli nuqtai nazarlarni himoya qiladi. Dalillar asosida bahslashish va mantiqiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi.

#### **2. "Savatdagi g'oya" metodi**

O'qituvchi yoki trener muayyan mavzu bo'yicha o'quvchilardan g'oyalarni yozib, savatga tashlashni so'raydi.Keyinchalik, har bir g'oya tahlil qilinib, eng yaxshilari tanlanadi.Bu usul ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi.

#### **3. "Nega?" va "Agar?" savollari**

O'quvchilar har bir fikr yoki holatni "Nega?" yoki "Agar?" savollari orqali chuqur tahlil qilishadi.Bu usul tanqidiy fikrlash va mantiqiy bog'liqlikni o'stirishga yordam beradi.

#### **4. SWOT tahlil**

Muammoning kuchli (Strengths), zaif (Weaknesses), imkoniyatlari (Opportunities) va tahdidlarini (Threats) baholash.Tanqidiy fikrlash orqali har bir jihat chuqur tahlil qilinadi.

#### **5. "Brainstorming" (Aqliy hujum)**

Bir guruh odamlar muayyan muammoni hal qilish uchun tezkor g'oyalar yaratadi.Bu metod ijodiy yondashuvni rag'batlantiradi va yangi innovatsion echimlar ishlab chiqishga yordam beradi.

#### **6. "6 shlyapa" metodi (De Bono usuli)**

O'quvchilar har xil shlyapalar (yondashuvlar) orqali bir muammoni tahlil qilishadi:

Oq shlyapa – faktlar va ma'lumotlar,Qizil shlyapa – hissiyotlar va sezgilar,Qora shlyapa – xavf va salbiy tomonlar,Sariq shlyapa – ijobiy tomonlar va imkoniyatlar,Yashil shlyapa – ijodiy g'oyalar,Ko'k shlyapa – umumiy boshqaruv va xulosa chiqarish

#### **7. CASE study (Holatlar tahlili)**

O'quvchilar real voqealar yoki muammolar bo'yicha tahlil yuritishadi va yechim topishadi.Tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish rivojlanadi.

## **Natijalar**

1. Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi

Muammolarni tahlil qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatları ortadı. Muammoli ta’lim va babs-munozaralar usullari orqali talabalar o‘z fikrlarini mantiqiy asoslashni o‘rganadilar.

2. Ijodiy yondashuv o‘quvchilarning yangicha fikrlashini shakllantiradi.

Yangi g‘oyalar yaratish, mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo‘llash va muqobil yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati oshadi. STEAM, gamifikatsiya va loyiha asosidagi ta’lim metodlari ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi.

3. Interfaol metodlar o‘quv jarayonini samaraliroq qiladi

Keys-stadi, "6 shlyapa" metodi, "SCAMPER" texnikasi kabi usullar o‘quvchilarni faol fikrlashga undaydi. Raqamlı texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qibiliyatları yanada rivojlanadi.

4. Pedagogik innovatsiyalar tanqidiy fikrlashni mustahkamlaydi

Ta’limda raqamlı texnologiyalar va IT yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali talabalar tez va samarali muammolarni hal qilishga o‘rganadilar. Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvga asoslangan dars metodlari o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

## **Xulosa**

Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun o‘quvchilar nafaqat bilim olishlari, balki uni tahlil qilish, yangi g‘oyalar yaratish va muammolarni original tarzda hal qilishni o‘rganishlari kerak. Shu bois ta’lim tizimida bu metodlarni faol qo‘llash zarur.

## **REFERENCES:**

1. Abu Nasr Farobi —Fozil odamlar shaxri tarjimonlar Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas’ul muharrirlar M.Xayrullaev, M.Jakbarov. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2016. – 320 b
2. A.Hayitov, S.Azizova Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari -bugungi kun yoshlarining ma’naviyat maktabi sifatida.
3. Ruggiero, V. R. The art of thinking: A guide to critical and creative thought (10th ed.). New York, NY: Longman. 2012
4. R.H.Ennis. Applying soundness standards to qualified reasoning. Informal Logic, 24, 1, 23-39. 2004
5. Paul, R. W. (1992). Critical thinking: What, why, and how? New Directions for Community Colleges, 1992(77), 3–24.

6. Harris, T., & Hodges, R. (Eds.). (1995). The Literacy Dictionary, 48. Newark, DE: International Reading Association.
7. Scriven, Michael (1997). «The methodology of evaluation». In Stake, R. E. Curriculum evaluation. Chicago: Rand McNally. American Educational Research Association (monograph series on evaluation, no)